

O'QUVCHILARNI ESTETIK RUHDA TARBIYALASH MEXANIZMLARI

*Nabiyeva Farog'at Mahmudovna, Cho'liyeva Nodira Safarmurotovna,
Buxoro davlat universiteti, pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-bosqich magistrлари*

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash mexanizmlari xususida fikr yuritiladi. Inson tabiatan go'zallikka intiladi. Axloq, dunyoqarash, estetik ruh tushunchalari tavsiflangan. O'quvchi-yoshlarni estetik ruhda tarbiyalash yo'llari keltirilgan.

Kalit so'zlar: estetik ruh, axloqiy tarbiya, o'quvchi, kreativ, o'qituvchi faoliyati.

Ma'lumki, buyuk mutafakkirlarimiz, allomalarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy kashfiyotlar, nodir ma'naviy-madaniy meros, jamiyatimizning oliy qadriyati – insonning axloqiy-estetik dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishning asosini tashkil etadi. Darhaqiqat, axloqiy-estetik dunyoqarash – bu insonlarning ob'ektiv borliq va uning o'zgarib, rivojlanib borishi to'g'risidagi ilmiy, falsafiy, huquqiy, axloqiy, siyosiy, estetik, diniy qarashlari va tasavvurlarining yig'indisiki, uning natijasida umuminsoniy g'oyalar, qadriyatlar, bilimlar egallanadi, ideallar (ijtimoiy, axloqiy, estetik) tarkib topadi, Vatanga, jamiyatga, millatga, urf-odatlariga, ona tarixga va tilga ijtimoiy munosabat shakllanadi.

Shuni e'tibordan chiqarish kerakki, axloqiy-estetik dunyoqarashning mohiyati va ahamiyati jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy va iqtisodiy taraqqiyotiga, yoshlar kamolotiga ko'rsatayotgan ta'sir doirasiga qarab belgilanadi. Shunga ko'ra axloqiy-estetik dunyoqarashi rivojlangan deb o'z axloq-odobi, bilimi, tafakkuri, e'tiqodi, ilmiy, diniy, go'zallik to'g'risidagi va mafkuraviy qarashlarini, ideallarini, imon-irodasini xalq, millat, jamiyat, Vatan manfaat, taraqqiyoti, istiqboli bilan bog'lay oladigan kishilarni tushunamiz. Shuningdek, axloqiy-estetik dunyoqarashi rivojlangan kishilar jamiyat qabul qilgan odob-axloq, burch va mas'uliyat, adolat va haqiqat, halollik va rostlik, insonparvarlik va xalqparvarlik, huquqiy majburiyat mezonlariga rioya qilgan holda faoliyat olib boradi.

Oliy ta'lim muassasalarining kasbiy ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarining axloqiy-estetik dunyoqarashi nihoyatda keng, ko'p qirrali, mohiyati jihatidan chuqur va murakkab bo'lib, o'z mazmuniga ko'ra nazariy va amaliy tahlilni taqozo qiladi. Shuning uchun eng avvalo «dunyoqarash», «axloq», «estetika» tushunchalarini nazariy va amaliy jihatlari, o'xshash tomonlari, yaxlitligi hamda farqlarini aniqlashtirib, «axloqiy-estetik dunyoqarash» iborasining mazmun-mohiyatini ko'rib chiqib, ijtimoiy-pedagogik hodisa ekanligini asoslashni hamda uni bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Ma'lumki, «dunyoqarash» ijtimoiy-falsafiy tushuncha bo'lib, falsafa fani mazmunidagi muhim kategoriya hisoblanadi va falsafaning asosini tashkil qiladi. Falsafa esa donolikni sevuvchi fan sifatida dunyoqarashni kishilarning olam va odam to'g'risidagi qarashlarini, bilimni, tafakkurini ifodalovchi kategoriya sifatida, voqea va hodisalarga, amaliy faoliyatga, munosabatlarda, ularni anglashlarida namoyon bo'ladi deb tushuntiradi.

Shunga asosan «Dunyoqarash» insonlarning voqelikka, uning o'zgarib, rivojlanib borishini ifodalovchi hodisadir.

Demak, inson dunyoqarash asosida o'zini, voqelikni anglaydi, borliqqa munosabat bildiradi, shuning asosida jamiyatdagi o'z o'rnini bilib oladi, o'zlashtirilgan bilimlari asosida o'z maqsadini, shaxsiy va ijtimoiy mavqei belgilaydi. Bu esa huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati kishisiga xos xususiyatning shakllanishi, unda insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ularni asrab-avaylash va takomillashtirib borishga amaliy yordam berish ko'nikmalarini shakllanishi uchun zarur holdir.

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida shaxsning xulq-atvori, intizomi, yurish-

turishi va shaxsiy hayotdagi va jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi muayyan me'yor va qoidalar sifatida, yosh avlodda, halollik, poklik, burch, vijdon, e'tiqod, oliyanoblik, fidoyilik, vatanga muhabbat, elni e'zozlash, yo'qsillarga ko'maklashish kabi bir necha insoniy fazilatlarni tarbiyalovchi kuch hamdir. Axloq yo'q joyda inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi. Faqat mukammal axloq ta'sirida yosh avlod o'zini, yashash mazmunini va maqsadini, ota-ona, xalq, millat, jamiyat oldidagi mas'uliyat va burchni, majburiyatini aniq anglaydi, baxt, iymon, e'tiqod, diyonat, yaxshilik, yovuzlik, yomonlik, adolat kabi fazilatlarini to'g'ri idrok etadi, o'z-o'zini idora qilish me'yorlarini tushunib yetadi va shuning uchun mohiyatan hamda mazmunan dunyoqarash bilan bog'liq bo'ladi.

Axloqning muhim belgilaridan biri – odobdir. Odob axloqiy fazilatlar shaxsning kundalik hayoti, faoliyatida aks etayotganligini ko'rsatuvchi mezondir. Chunki, axloq kishilarning xulq-atvori, yurish-turishini me'yorga, ta'qiqlash, baholash bilan, intizom, muomala madaniyati, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatni, jamoada o'zini tuta bilishni tarbiyalaydi. O'ziga yuklatilgan mas'uliyatni bajarishga, o'z sha'ni va g'ururini saqlashga undaydi. Shu nuqtai nazardan u dunyoqarash mazmunini to'ldiradi. Bular har bir kishining qadr-qimmatini, uning dunyodagi, ijtimoiy hayotdagi o'rini, jamiyatga munosabati va mas'uliyatini hamda o'z qarashlarini aniqlash uchun omil rolini o'taydi.

Odobda har bir xalqning ijtimoiy ehtiyoj, zaruriyat, qabul qilingan odat, namuna, rasm-rusum, taomil kabi ijtimoiy-shaxsiy me'yorlari mujassamlashgan. Odobsizlik axloqsizlikning bir ko'rinishi sifatida tubanlashgan insonning iymon, vijdon, insof, sharm-hayo, andisha, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi axloqiy mezonlar chegarasidan chekinishdir. Tajribaning ko'rsatishicha, har qanday inson yoshligidan boshlab beodob oilada, beodob kishilar davrasida o'sib ulg'aysa, voyaga yetgach uning ruhiyati, vujudiga singib qolgan beodoblik illatini yo'qotish juda qiyin kechadi.

Muxtasar qilib aytganda, yoshlarimizning odobida mayda-chuyda noaxloqlikka yo'l qo'ymaslik uchun ularning ongi va tafakkurida sog'lom turmush tarzi, milliy va umuminsoniy estetik me'yorlariga hurmat, ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab singdirish zarur.

Darhaqiqat, axloqiy his-tuyg'ular, huquqiy-axloqiy munosabat, go'zallik nuqtai nazaridan idrok qilinadi va baholanadi. Chunki axloqiylik nafosat (go'zallik) bilan chambarchas bog'lanib ketgan ijtimoiy-pedagogik hodisa hisoblanadi. Ayni paytda, shaxsning bilish va xulqining asosini emotsional o'sishining birligi bo'lgan estetik zavqlanish tashkil etadi va shuning uchun nafosat tarbiyasining asosiy qoidalaridan e'tirof etiladi. Shuning uchun estetiklik axloqiylikni samarali tashkil etishning muhim quroli hisoblanadi. Darhaqiqat, go'zallikdan lazzatlanishda faqat san'at asarlaridan emas, balki o'zaro hurmat, jamoadagi izzat, ezgu ishlardan faxrlanish, mukammal xulq-atvor, sadoqat, vijdonan mehnat qilish kabi kategoriyalar ham muhim o'rin tutadi. Bu ijtimoiy hayotda ham, faoliyatda ham taraqqiyot uchun ob'ektiv jarayondir. Mukammal va rivojlangan jamiyatda u kishilar o'rtasidagi munosabatda, xatti-harakatlarda, xulq-atvorda namoyon bo'ladi, ayrim insonlar, ijtimoiy guruh, qatlamlarning qarashlari va tasavvurlarida o'z ifodasini topadi, san'at asarlari, ishlab chiqarish qurollarida mujassamlashadi.

Inson tabiatan go'zallikka intiladi. Uning axloqiy xatti-harakatlari, xulq-odoblari, his-tuyg'ulari, tasavvurlari, go'zallik, ya'ni orzu-umid, maqsad-istak, shodlik, sevinch emotsional holatlarsiz rivojlana olmaydi. Zero, burch, majburiyat, mas'uliyat, o'zaro hurmat, insonparvarlik, oliyanoblik kabi axloqiy fazilatlar nafosat nuqtai nazaridan qabul qilinib, shaxsiy mulkka aylansa, ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Chunki, go'zallik bu faoliyatning o'zi, tabiat hamda inson mehnati natijalari esa insoniy munosabatlarning mukammalligidir. Bundan nafosat voqeikdagi narsa va hodisalarni go'zallik nuqtai nazardan ifodalab, unga mukammallik yo'nalishida munosabatda bo'lishni anglatuvchi estetik ongni shakllantiradi. «U ong ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida axloqiy ong, siyosiy ong, huquqiy ong, diniy ong, falsafiy ong kabi ijtimoiy hodisalar bilan bir qatorda turib, ma'naviy-ruhiy voqea-hodisalar majmui sifatida ijtimoiy hayot zaminida vujudga

keladigan estetik his, estetik did, fikr, orzu-qarash, nazariya tizimini anglatadi.

Estetik qarashlar – bu voqelik va san’atdagi go’zallik to’g’risidagi g’oyalalar, fikrlar, tasavvurlar, mulohazalar yig’indisidir. Estetik qarashlar ham estetik ong, estetik his-tuyg’u, estetik madaniyat asosida shakllanib voqelikni in’ikos qilish shaklidir. Bunda estetik qarashlar faqat mavjud voqealar, hodisalarni in’ikos etish bilan chegaralanmay, balki kelajakda u qanday bo’lishi kerakligini ham tasavvurlarda ifodalaydi. Bunda inson faqat tabiat, jamiyat, san’at asarlaridagi go’zallikka munosabat bildirish bilan cheklanmay, balki ezgu ishlar, yutuqlar, ijodiy faoliyat natijalarini tasavvur qiladi, ulardan zavqlanadi va lazzatlanadi. Shu nuqtai nazardan estetik qarashlar, axloqiy qarashlar bilan hamohangdir. Zero, axloqan barkamol inson, estetik ong, estetik his-tuyg’u, estetik idealga ega bo’lgan shaxsdir. Chunki, estetik ideal zamirida nafosat, mukammallik, adolat, olijanoblik, insonparvarlik, millatparvarlik, xalqsevarlik kabi axloqiy-estetik fazilatlar mujassamlashgan. Bu yaqinlik, bu aloqadorlik, bu hamohanglilik mohiyatidan kelib chiqib, aytish mumkinki, axloqiy xulq-atvor, axloqiy munosabatlar, xatti-harakatlar, muomala madaniyati go’zallik nuqtai nazaridan idrok qilinib, baholansa, o’z navbatida yuksalish insonni axloqiy faoliyatga tayyorlaydi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, axloqiy qarashlar, estetik qarashlar bilan uyg’unlashib, axloqiy-estetik dunyoqarashni tashkil etadi va insonning xulq-atvorini, odobini, e’tiqodini, aql-zakovatini, voqelikni go’zallik qonunlari asosida anglashga undaydi. Bu esa o’z navbatida demokratik huquqiy davlat a’zosi egallashi kerak bo’lgan ijtimoiy fazilatdir.

Rivojlanishni hech qachon orqaga qaytmaydigan, kelajakka yo’naltirilgan, zaruriylik bilan bog’liq hodisa deb qabul qilmoq kerak. Shu nuqtai nazardan rivojlanishni shaxsga nisbatan qo’llaydigan bo’lsak, u insonning fiziologik, ruhiy-pedagogik, ma’naviy-intellektual o’sishini ta’minlovchi, miqdor o’zgarishdan sifat o’zgarishlarga o’tadigan holat hisoblanadi. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarda axloqiy-estetik dunyoqarashni rivojlantirish – ularda Respublikada huquqiy demokratik o’zgarishlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish sharoitida go’zal ijtimoiy-iqtisodiy hayot, mukammal jamiyat to’g’risidagi tasavvurlarga ega bo’lgan va yot mafkuraviy qarashlar hamda g’oyalarga qarshi kurasha oladigan yangi insonlarni shakllantirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi ijtimoiy-pedagogik hodisa deb ta’kidlash ayni muddao bo’ladi.

Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, barkamol insonlarning dunyoqarashini tarkib toptirishda ham, mukammal jamiyat quruvchilari va milliy mafkurani chuqur egallagan mutaxassislarni tayyorlashda ham axloqiy-estetik dunyoqarashni rivojlantirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Chunki, axloqiy-estetik dunyoqarashi rivojlangan inson tabiatni asraydi va uni ko’paytirishga, umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qolishga, miliy ongini yuksaltirishga, mamlakat ravnaqiga o’z hissasini qo’shib, zimmasidagi burch va majburiyatlarni to’la bajarishga nisbatan mas’uliyat bilan yondashadigan bo’ladi.

E’tirof etib o’tish joizki, o’quvchi-yoshlar ongida milliy mafkura talablariga xos bo’lgan dunyoqarashni rivojlantirish zarur. Bu dunyoqarash xalqimizning udumlari, an’analari, madaniyati, tili, tarixi va ruhiyatiga asoslanib, yoshlar ongida ishonch, mehr-oqibat, ma’rifat va shafqat kabi tuyg’ularni singdirishi lozim. Ushbu ehtiyoj va talabdan kelib chiqib bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarida axloqiy-estetik dunyoqarashni rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida e’tirof etiladi va u quyidagi yo’nalishlarda namoyon bo’ladi:

1. Milliy mustaqillikni mustahkamlash, kelajagi buyuk davlatni bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o’tishini ta’minlash va buning uchun yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma’naviy munosabatlarni qaror topa borishi, mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning inson manfaatlariga xizmat qilishining yo’lga qo’yilganligi hamda barkamol avlodni voyaga yetkazish mutasaddi tashkilotlarning ustuvor vazifasiga aylanganligi.

2. Kasb egalarida axloqiy-estetik dunyoqarashni rivojlantirish mohiyat-e’tibori bilan huquqiy demokratik davlatni qurishni takomillashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini

shakllantirishning xalq irodasiga, ruhiyatiga, milliy tuyg'ulariga, orzu-intilishlariga mos bo'lishini ta'minlashning lozimligi.

3. Albatta, mamlakatdagi yangilanishlar millat va Vatan manfaatlarini, kelajak rejalar, milliy an'analarimiz mazmuni va ruhiyatiga mos holda rivojlanadi. Bu esa, o'z navbatida mamlakatda olib borilayotgan islohotlar jarayoni taraqqiyotining turli jabhalari (siyosiy, huquqiy, ma'naviy, iqtisodiy va h.k) dagi ijobiy o'zgarishlarga har bir inson, ayniqsa, yoshlar to'g'ri munosabatda bo'lishi lozimligining zaruriy ehtiyojga aylanganligi.

4. Bo'lajak mutaxassislarining pedagogik tafakkurining yangilanishini taqozo etadigan eng muhim vazifa ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalishning iqtisodiy o'nglanish va iqtisodiy rivojlanish bilan uyg'unlashib borishi uchun milliy istiqbol mafkurasining asosiy maqsad va g'oyalari hayotga tadbqiq etish yo'lida xizmat qilishdir. Mazkur maqsad va g'oyalar mehnatkashlar manfaatini ifoda etgani bois ularni ma'naviy-iqtisodiy turmush tarzining tarkibiy qismiga aylantirishning muhim ahamiyat kasb etayotganligi.

5. Fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida davlatchilik rivojlanadi va unda boshqaruvning turli xil vazifalari bevosita xalq ommasi tomonidan amalga oshiriladi. Buning uchun oliy ma'lumotli mutaxassislar mamlakatda qabul qilinayotgan qonun va boshqa direktiv hamda normativ hujjatlarning asl mohiyatini, ulardagi g'oyalar, tavsiyalar, ko'rsatmalar mazmunini keng xalq ommasi ongiga yetkazishi uchun ulardan xabardorlik, bilimdonlik, ma'rifatlilik talab etiladi. Zero, huquqiy jamiyat va ma'rifatli, barkamol avlod tushunchalari hamohangligining kundalik iste'molga kirganligi.

6. Ma'lumki, mamlakatimiz azaldan bashariyat madaniyati, ma'naviyati, tafakkuri xazinasiga ulkan hissa qo'shgan al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Imom Buxoriy, Xoja Bahouddin Naqshband, Imom at-Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur singari yuzlab ajdodlarni elga tanitgan yurtidir. Ularning falsafiy-pedagogik tafakkuri bilan yaratilgan, ma'naviyatlilik, adolatparvarlik, insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan va Sharq pedagogikasi asosini tashkil etgan ta'limotlarini yoshlar ongiga singdirish, ularda ilm-fanga intilish hissiyotlarini tarbiyalashi tabiiy holdir. Bu o'z navbatida har bir mutaxassisda pedagogik tafakkur, axloqiy-estetik dunyoqarash shakllanishi lozimligini taqozo etganligidir.

7. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida axloqiy-estetik dunyoqarashni rivojlantirish o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, mutaxassisning faoliyatidan chetda kechadigan jarayon emas. Chunki u nafaqat umumjamiyat miqyosidagi, balki har bir mutaxassisni barkamolligi uchun ham zarur bo'lgan jarayondir. Shu ma'noda, u ham jamiyat ma'naviy qiyofasini belgilab beradigan ham ijodiy mehnat muhofazasini ta'minlaydigan islohotning maydonga kelganligidir.

Mamlakatimizda bu borada juda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun yuksak ma'naviy-axloqiy salohiyat, yuqori malakaga ega bo'lgan mutaxassis-kadrlarni tayyorlashni zamon talablari darajasiga ko'tarish borasida respublika jamoatchiligi salmoqli ishlarni amalga oshirmoqda.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.-488 bet.

2. Abdullayeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi.-Toshkent: fan va axborot texnologiyalari, 2017.-178 bet.